

Izimbetov K.S. Nukus innovation institutida assistent o'qituvchi

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING TABIIY TUZILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRASHISHLAR HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda tumanlaridagi tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish, tabiiy o'sishi yoki kamayishi ko'rib chiqildi. Respublika statistika boshqarmasining 2010-2022 yillardagi statistic ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Demografiya, tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish, tabiiy o'sish yoki kamayishi, promille, aholining tabiiy harakati.

Izimbetov K.S.

Assistant teacher at Nukus Innovation Institute

NATURE OF THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAGISTAN CONCERNING ARRANGEMENT MARRIAGES AND DIVORCES

Abstract. In this article, arranged marriages, divorce, natural increase or decrease in the Republic of Karakalpakstan and its districts were considered. It was analyzed on the basis of statistical data of the Republic Statistics Department for 2010-2022.

Key words: Demography, arranged marriages, divorce, natural increase or decrease, per mille, natural movement of the population.

Demografik jarayonlarni tadqiq etish ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, aholisoni, tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish, yoshi, jinsi, aholining tabiiy harakati, iqtisodiy farqi hamda boshqada asosiy tavsiflar davlat darajasida zarur yechimlar qabul etish uchun asos bo'lib xizmat etadi. Shuning uchun ham demografik jarayonlarga, masalan, tuzilgan nikoh darajasiga, aholining tabiiy o'sishiga, nojo'ya tasir etadigan omillarni aniqlash, uning yechimlarini o'rganish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Tabiiy o'sish asosiy demografik ko'rsatkishlarning biri hisoblanadi, bu tuzilgan nikohlar va ajrashish soni orasidagi farqdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida turli omillar tasiri ostida o'rganilgan vaqt oralig'ida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi.

2010-2022 yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston Respublikasida tuzilgan nikohlarning tabiiy kamayish dinimikasini tahlil qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanib tuzilgan nikohlar va ajrashish statistik ko'rsatkishlari baholandi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi eng ko'p tuzilgan nikohlar 2011 yilga to'g'ri keladi (17920 kishi). 2022 yilga kelib, tuzilgan nikohlar soni 14857 kishini tashkil etdi.

1-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tuzilgan nikohlar soni 2010-2022 yillar.

| | Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tuzilgan nikohlar soni | | | |
|------|---|---------------|---------|------------------------------------|
| | Jami | Shu jumladan: | | har 1000 kishiga nisbatan promille |
| | | shahar | qishloq | |
| 2010 | 17796 | 7756 | 10040 | 10,9 |
| 2011 | 17920 | 7982 | 9938 | 10,7 |
| 2012 | 16686 | 7431 | 9255 | 9,9 |
| 2013 | 16525 | 7490 | 9035 | 9,7 |
| 2014 | 15035 | 6630 | 8405 | 8,7 |
| 2015 | 13791 | 6236 | 7555 | 7,8 |
| 2016 | 12760 | 5641 | 7119 | 7,1 |
| 2017 | 14109 | 6234 | 7875 | 7,8 |
| 2018 | 14450 | 6643 | 7807 | 7,8 |
| 2019 | 14259 | 6748 | 7511 | 7,6 |
| 2020 | 11561 | 5327 | 6234 | 6,1 |

| | | | | |
|------|-------|------|------|-----|
| 2021 | 15746 | 7535 | 8211 | 8,2 |
| 2022 | 14857 | 6906 | 7951 | 7,6 |


Qoraqalpog‘iston Respublika statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan. [Elektronresurs] -

<http://www.qrstat.uz/kk/rasmiy-statistika-2/demography-2>

Tuzilgan nikohlar darajasi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar soni 14857 kishini tashkil qildi va 2010 yilning shu davriga (17796 kishi) nisbatan 2939 kishiga yoki 16,5 foizga kamaydi. Tuzilgan nikoh koeffitsienti mos ravishda 7,6 promilleni tashkil qildi va 2010 yilning shu davriga (10,9 promille) nisbatan 3,3 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy tuzilgan nikohlar harakati koeffitsientlari (2010-2022 yillarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)

2-jadval.



Qoraqalpogʻiston Respublikasida 10,9 dan 7,6 promillega, Amudaryoda 12,8 dan 8,5 promillega, Beruniyda 11,4 dan 8,4 promillega, Qonlikoʻlda 11,4 dan 6,7 promillega, Nukus tumanida 10,9 dan 8,5 promillega, Toʻrtkoʻlda 9,4 dan 7,9 promillega, Xoʻjaylida 10,7 dan 7,3 promillega, Shumonoyda 11,8 dan 5,8 promillega va Ellikqalʼada 12,4 dan 8,7 promillega kamayishi kuzatilgan.

Nikohdan ajrashish darajasi Respublikada 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajrashishlar soni 2067 kishini tashkil qildi va 2011 yilning shu davriga (678 kishi) nisbatan 1389 kishiga koʻpaydi. Mos ravishda nikohdan ajrashish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil qildi (2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 0,4 promille).

Respublikada 1000 aholi soniga nisbatan nikohdan ajrashish darajasining 0,7 promillega ortganini koʻrsatadi.

Nikohdan ajrashish koeffitsientlari sayti maʼlumotlari asosida tuzilgan.

[Elektronresurs] -


<http://www.qrstat.uz/kk/rasmiy-statistika-2/demography-2>

Nikohdan ajrashish koʻrsatkichlarining yuqori darajasi Beruniyda (0,6 dan 1 promillega), Qoraoʻzakda (0,3 dan 0,9 promillega), Taxtakoʻpirda (0,5 dan 1,3 promillega), Qoʻngʻirotda (0,7 dan 1,3 promillega), Toʻrtkoʻlda (0,4 dan 0,8 promillega) va Ellikkalʼada (0,4 dan 0,9 promillega) koʻpayishi kuzatilgan.

Yanvar-dekabr oylarida aholining tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish harakati

| | kishi | | | har 1000 kishiga nisbatan promille | |
|-----------------------|-------|-------|------------------|------------------------------------|------|
| | 2010 | 2022 | oʻsish, kamayish | 2010 | 2022 |
| tuzilgan nikohlar | 17796 | 14857 | 2939 | 10,9 | 7,6 |
| nikohdan ajrashishlar | 870 | 2067 | 1197 | 0,5 | 1,1 |
| Tabiiyoʻsish | 16926 | 12790 | 1742 | 10,4 | 6,5 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish darajasi va aholining o‘sishi.



3-jadval.

(2022 yil yanvar-dekabr oylarida 1000 aholi soniga nisbatan promille) sayti malumotlari asosida tuzilgan. [Elektronresurs] –

<http://www.qrstat.uz/kk/rasmiy-statistika-2/demography-2>

Qayd etish joizki, 2010-2022-yillarda Qoraqalpog‘istonda jami nikohdan ajrashish koeffitsienti 0,5 ‰ dan 1,1 ‰ gacha kopaydi. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 3-jadvalda tasvirlangan. Tabiiy o‘shining eng yuqori ko‘rsatkichi Amudaryo (1,3), Nukus shahar (1,3), Qong‘irot (1,3), Taxiatoosh (1,3) va Taxtako‘pir (1,3) larida qayd etilgan, past ko‘rsatkichlari Amudaryo (0,9), Qarao‘zak (0,9), To‘rtko‘l (0,8), Kegeyli (0,9) va Ellikqala (0,9) tumanlarida kuzatilmoqda.

Shunday qilib, hududlar va tarmoqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barcha rejalari, dasturlari va ko‘rsatkichlari, shuningdek, ijtimoiy sohaga mablag‘lar ajratilishi demografik ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Aholining o‘sh sur‘atlari va ularning tarkibiy qismlari (tuzilgan nikohlar, nikohdan ajrashish darajasi) hisobga olinadi. Kelajakdagi barcha tarmoq va hududiy dastur va strategiyalar ham demografik ko‘rsatkichlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. 28.01.2022 йил.

[2] Основные показатели социально-экономического развития Республики Каракалпакстан. - Нукус, 1991-2021.

[3] Н.К.Аимбетов, Х.Л.Атаджанов, Д.Н.Есенгелдиев. Динамика и прогноз демографических показателей Республики Каракалпакстан. г. Нукуса. // Вестник ККО АН РУз, 2022. №2. с. 161-165.

[4] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami 2017-2021. Toshkent-2022 y.

<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

<https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>